

RASSOMCHILIKDAN-TEATR SAHNASIGA QADAR...

Namangan viloyati tarixi va madaniyati

Davlat muzeyi San'at bo'limi mudiri: **D.To'xtaboyeva**

Kirish

San'at – bu xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy olami va estetik qarashlarini o'zida mujassam etuvchi bebaho merosdir. U faqatgina go'zallikni ifodalash vositasi bo'lib qolmay, balki jamiyat taraqqiyoti, milliy qadriyatlar va davr ruhini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa ham hisoblanadi. Ayniqsa, tasviriy san'at, adabiyot va teatr bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sohalar bo'lib, ularning o'zaro uyg'unligi natijasida tomoshabin qalbiga kuchli badiiy ta'sir ko'rsatuvchi asarlar yaratiladi. Ko'rgazma zallarida namoyish etilayotgan asarlarga nazar tashlar ekansiz, har bir ijodkorning ichki dunyosi, kasbiy yo'nalishi va badiiy tafakkuri uning yaratgan asarlarida yaqqol namoyon bo'lishini his qilasiz. Ayrim asarlar rassomning faqat tasviriy san'at vakili ekanligini ko'rsatsa, ba'zilari ijodkorning bir vaqtning o'zida bir necha san'at yo'nalishlarini o'zida mujassam etgan noyob iste'dod sohibi ekanligini anglatadi. Ayniqsa, teatr rassomlarining ijodi ana shunday serqirra san'at namunasidir. Chunki teatr rassomi faqatgina dekoratsiya yoki sahna bezagini yaratmaydi, balki dramaturg qalamiga mansub badiiy asarni tasviriy vositalar orqali jonlantirib, uning g'oyaviy-badiiy mazmunini tomoshabinga yetkazishda muhim ijodiy vazifani bajaradi. Adabiyotda yaratilgan ertak, hikoya, qissa, roman va pyesalar teatr sahnasida aktyorlar ijrosi orqali hayot kasb etsa, sahna rassomi mazkur asarning makonini, davr ruhini, qahramonlar yashayotgan muhitni, ranglar uyg'unligini va badiiy kayfiyatini tasviriy yechimlar orqali gavdalantiradi. Shu bois teatr san'ati adabiyot, rejissura, aktyorlik mahorati, musiqa va tasviriy san'atning o'zaro uyg'unlashgan mukammal sintezi sifatida namoyon bo'ladi. Sahna bezaklari esa spektaklning badiiy yaxlitligini ta'minlab, uning mazmunini yanada teranroq ochishga xizmat qiladi. O'zbek teatr-dekoratsiya san'ati taraqqiyotida ana shunday fidoyi va iste'dodli rassomlar yetishib chiqqanki, ular yaratgan sahna bezaklari bugungi kunda nafaqat teatr tarixining, balki milliy tasviriy san'atimizning ham bebaho namunalariga aylangan. Shunday san'atkorlardan biri O'zbekistonda xizmat

ko'rsatgan san'at arbobi, mohir teatr rassomi Mutallib Abbasovdir. Uning ijodi Namangan teatrining shakllanishi va rivojlanishi, milliy dramaturgiya namunalarining sahna talqinini boyitish hamda teatr dekoratsiyasi san'atini yangi bosqichga olib chiqishda muhim o'rin tutadi.

Mutallib Abbasov o'zining qariyb qirq yillik ijodiy faoliyati davomida yuzlab spektakllarga sahna bezaklari yaratib, tarixiy, zamonaviy hamda jahon dramaturgiyasi namunalarini yuksak badiiy did bilan sahnalashtirishga munosib hissa qo'shdi. Uning eskizlarida rang va nur uyg'unligi, kompozitsion yechim, tarixiy muhitni haqqoniy ifodalash hamda obrazlarning ruhiy holatini tasviriy vositalar orqali ochib berish mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu jihatdan uning asarlari nafaqat teatr san'ati, balki muzey fondlarida saqlanayotgan tasviriy meros sifatida ham katta ilmiy, tarixiy va madaniy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondida saqlanayotgan Mutallib Abbasov qalamiga mansub sahna bezaklari va eskizlar teatr rassomligi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada san'atkorning hayoti, ijodiy faoliyati, teatr rassomligi sohasidagi xizmatlari hamda muzey fondida saqlanayotgan asarlarining badiiy va tarixiy qimmati yoritiladi. Shuningdek, uning milliy teatr dekoratsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi va kelajak avlod uchun qoldirgan ijodiy merosi tahlil etiladi.

Yurtimizda tashkil etilgan k'rgazmalarni tomosha qilar ekanman. Asarlarda ijodkorning qay soha vakili ekanligini payqab olasiz. Yaratilgan asarlar ijodkorni kim ekanligini oshkor qiladi. Men ko'rgan korgazmadagi asarlar esa ijodkorni san'atning bir vaqtning o'zida ikki soha vakiliga ayantirib qoyganligini ko'rish mumkin. Balkim aytarsiz ikkalasi ham bir xil soha. Yo'q bu asarlarda adabiyot, teatr hamda tasviriy san'at sohalari bir-biriga uzviy bog'lanib ketganligini bilmay ham qolasiz. Nega deysizmi chunki adabiyot vakillari tomonidan yozilgan badiiy ijod na'munalari-ertag, hikoya, roman, pyessalar bo'lsa, ana shulardan foydalanilgan holda teatr sahnasida teatr ijodkorlari

tomonidan rollar ijro etilsa, rassom ijodkorlar tomonidan esa sahnalashtirilgan asarni boshidan oxirigacha aniq xolatda palatnoga eskiz qilib chizadi. Bu esa uni yoritib beradi.

Ana shunday ijodkorlardan biri Mutallib Abbassovdir.

U 1924 yili Namangan shahrining Ittifoq mahallasida tavallud topgan. Mutallibning otasi usta Abbos Ahmadho'jayev qo'li gul kishi bo'lib, zargarlik, me'morlik va badiiy naqqoshlik hunarlari bilan Namanganda dong'i ketgan edi. Shuning uchun ham uni har doim usta deb hurmatlardilar. Yosh Mutallib doim otasi yonida bo'lar, unga doim yordam berar va ziyraklik bilan ota san'atini kuzatardi. Otasi bilan hamkorlikdagi ishlar Mutallibda san'atga bo'lgan qiziqish va ixlos uyg'otdi. Kelajakda esa san'atkor bolishdek ezgu maqsad uning dilidan mustahkam joy oldi. Endi u tinmay otasi yonida turib undan san'at sirlarini o'rganar va bo'sh vaqti bo'ldi deguncha teatrga shoshar, yosh tomoshabinlar uchun ishlangan dekoratsiyalar uning diqqatini tortib, qiziqib tomosha qilardi. Balki shu bois unda teatr rassomi bo'lish niyati uyg'ongan bo'lsa ajab emas.

San'atga bo'lgan qizg'in muhabbat Mutallibni Toshkentga boshlaydi. 1940 yili u Toshkent badiiy o'quv-ishlab chiqarish maktabiga o'qishga kiradi. Bu yerda u o'zbek san'atining taniqli namoyondalari o'zbekiston xalq rassomi M. Karimov va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Ya. Raufovlardan ta'lim oladi. O'qishni tugatgach M.Abbasov Namanganga qaytadi va Alisher Navoiy nomidagi viloyat teatrida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi A.V. Nikolayev (Usta Mo'min) va Balakirovlarga yordamchi rassom bo'lib faoliyat yuritadi.

1942 yili u armiya safiga olinib to urush tamom bo'lguncha jang qiladi. Rassom M. Abbasov 1947 yili armiya safidan qaytgach, yana sevimli kasbini davom ettiradi. Endi u rassom-ijrochi vazifasini bajarib, teatr bosh rassomi Tursun Abdullayevning "farxod va Shirin", "Gulsara", "Tohir va Zuhra" kabi spektakllarga chizgan eskizlariga dekoratsiya ishlaydi. Shu bilan briga o'zi ham mustaqil ravishda ishlay boshlaydi. 19448-1951-yillar rejjiysor Q. Xo'jayev bilan hamkorlikdagi ijodiy mehnat yosh rassom uchun haqiqiy izlanishlar davri bo'ldi.

Chunki, unga “Navoiy”, “Xamza”, “Maysaraning ishi”, “Tor-mor” kabi qator spektakllarni bezashdek g’oyat ma’suliyatli, ammo sharaflı vazifa topshiriladi. Bu albatta uning tinimsiz izlanishini talab qilardi. Shuning uchun ham u tez-tez Toshkentga ijodiy safarlarga jonatilardi. U poytaxt spektakllarini ko’rar, taniqli rassom dekoratorlar, O’zbekiston xalq rassomlari meli Musayev, Hamidulla Ikromov, A. Riftin va boshqa ko’pgina katta mutaxassislardan ish o’rgandi, maslahatlar oldi. Keyinchalik M.Abbasov M. Musayev bilan hamkorlikda “Alpomish” spektakliga dekoratsiya ishlaydi. Tajribali, katta rassom bilan hamkorlikdagi ijod keyinchalik ham Mutallibga ijodiy ozuqa berib, “Aziz va Sanam”, “Layli va Majnun” kabi musiqali dramalarga bezak ishlaydi. Bu spektakllarda rang va nur bilan musiqiy-lirik gamma bir-biriga uyg’unlashib ketib, dekoratsiyaning plastikligini oshirdi.

1954-1959 yillar M.Abbasov uchun juda ham barakali ijod yili bo’ldi. Bu yillar u rejissyor A.I. Xachaturov bilan hamkorlikda ishlab, Shekspirning “Otello”, “Qirol Lir”, R. Tagorning “Gang daryosining qizi”, Lermontovning “Ispanlar”, J.Rodarining “Chipollino” kabi katta spektakllarini bezaydi. Bu spektakllar M.Abbasovning rang va nurdan ustalik bilan foydalana olishini, kostyumlar tanlashdagi bilimi va ajoyib badiiy fantaziyasi borligini korsatdi.

Davr bilan hamnafas M.Abbasov boshqa ilg’or rassomlar kabi spektakl dekoratsiyasini shartli hal qilishga o’tdi. S.tillayev va A.Ismatullayevning “Gulja ustida nur” pyesasga islangan dekoratsiya bu borada birinchi sinov bo’ldi.

1958, 1959, 1961 yil va 1974 yillarda Rassomlar soyuzi va Teatr jamiyati tomonidan uyushtirilgan respublika ko’rgazmasida M.Abbasov o’z asarlari bilan qatnashdi. 1968 yilda esa Navoiy nomli teatr M.Abbasovning shaxsiy ko’rgazmasini uyushtirdi. Bu ko’rgazmani minglab san’at shinaavandalari tomosha qildilar.

Oxirgi yillarda M. Abbasov tajribali rejissyor, O’zSSR da xizmat ko’rsatgan san’at arboi G.P. Kim, yosh iste’dodli rejissyorlar K.Yo’ldashev va M.Asqarovlar bilan

muvaffaqiyatli ishlab , “Alpomish”, “Ali bob va qirq qaroqchi”, “Qaroqchilar”, “Vaqt 24 soat”, “Avar va Ra’no” va boshqa ko’pgina spektakllarni bezatdi.

M.Abbasov ijod prinsipiga qarab turib, uning K.S.Stanislavskiy sistemasiga sodiq san’atkor ekanligini bilib olish qiyin emas. Chunki, u ishlagan bezaklar tomoshabin diqqatini chetga chalg’itmasdan, aksincha unga spektakl g’yasini tushunishda yordam beradi va shuning bilan birga aktyor harakati uchun qulay bo’ladi. U qaysi bir spektaklga dekoratsiya ishlamasin, eng muhimi biror sotsial masalani yechishga urinadi.

Teatr tashkil topgan 1931 yildan 1975 yilga qadar teatr sahnasida 170 ta spektakl sahnalashtirilan bo’lsa, shundan 120 tasi Abbasov mo’yqalami bilan bezatilgandir. M.Abbasov teatrdagi faoliyati davomida jami 200 ga yaqin sahna bezagi yaratgan. U bezagan spektakllar ichida milliy dramaturgiyadan tortib rus va chet el shoh asarlarigacha bo’lgan.

M.Abbasov yashagan asr kosmos asri bo’lib, xalqning madaniy saviyassi ham kundan-kunga yuqorilab brogan edi. San’atkor esa unga bayroqdorlik qilishi, xalqni oldinga boshlashi kerak edi. San’atkor esa o’z jamoasining, xalqning mehrini qozongan. Doimo jamoat ishlarida faol, tashabbuskor bo’lgan. Ko’p yillar Namangan teatrining boshlang’ich partiya tashkiloti birinchi sekretari bo’lib ishlagan.

O’z davrida rassom mehnatlari munosib taqdirlandi. U orden va medallar bilan taqdirlangan. 1967 yili tasviriy san’atdagi xizmatlari uchun unga O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi degan yuksak unvon berilgan. 1974 yili Rassomlar uyushmasiga a’zolikka qabul qilingan. Afsuski 1982 yilga kelib Mutallib Abbasovni og’ir xastalik oramizdan olib ketdi.

Garchi bu dunyoni tark etgan rassomni qaytadan hotirlash uchun uning yaratgan asarlari bordir.

Namangan viloyat tarixi va madaniyatidavlat muzeyida u tomonida yaratilgan asarlarni uchratishingiz mumkin.

Masalan: Abu Ali Ibn sinoning 100 yillik yubileyiga bag'ishlab sahnalashtirilgan "Ibn Sino", "Sehrli boshqoq" ertagiga ishlangan eskiz, "Rustam" spektakli, "Besh so'mlik kelin", "Nuri-diydam", "Ona qalbi", "Oshiq g'arib", "Sehrli ko'zgu", "Singillar", "Tog'dai alanga" kabi ko'plab spektakllar eskizlarimuzeyning Xazina bo'limida saqlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Abbosov, Mutallib maqolasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
2. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Karimov M. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
4. Ikromov H. O'zbek teatr-dekoratsiya san'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.